

«TASDIQLAYMAN»
G'ijduvon tumani Xalq ta'limi bo'limi
M.Fayziyev
« 2 » 2022 yil

**G'IJDUVON TUMANI XALQ TA'LIM BO'LIMIGA QARASHLI
"BARKAMOL AVLOD BOLALAR MAKTABI"GA MEBEL JIXOZLARI
XARID QILISH BO'YICHA**

TANLOV HUJJATI

G'ijduvon tumani - 2022 yil

Tanlov xujjatlarining mazmuni:

I. Tanlov ishtirokchilari uchun yo'riqnoma

II. Texnik qism

III. Narxlar qismi

TANLOV ISHTIROKCHISI UCHUN YO'RIQNOMA

1.TANLOV PREDMETI VA TAXMINIY QIYMATI

1. Tanlov predmeti: G'ijduvon tumani Xalq ta'limi bo'limiga qarashli Barkamol avlod bolalar maktabiga mebel jixozlari xarid qilish.

1.2. Tanlovning yuqori qiymati – 189 060 000 (bir yuz sakson to'qqiz million oltmish ming) so'm. Ushbu qiymatdan ortiq qiymatdagi takliflar qabul qilinmaydi va ko'rib chiqilmaydi.

1.3. Maxsulot bo'yicha Texnik topshiriq tanlov xujjatlarining texnik qismida ilova qilingan.

Ushbu tanlov yakunlari bo'yicha g'olib chiqqan bajaruvchi tashkilot bilan shartnoma tuziladi.

1.4. Ishlarni bajarish muddati: G'olib bo'lgan qatnashchi bilan shartnoma imzolangan kundan boshlab tuzilgan nuqson dalolatnomasiga asosan belgilangan grafik bo'yicha.

1.5. Ishlarni boshlash muddati – avans mablag'i o'tkazilgan kundan boshlab hisoblanadi.

2.TANLOV TASHKILOTCHILARI

2.1. G'ijduvon tumani Xalq ta'lim bo'limi (bundan keyin – "Buyurtmachi" deb ataladi) – tanlov tashkilotchisi hisoblanadi "Buyurtmachi" manzili: Ibn Sino ko'chasi 158- uy

2.2. Tanlov "Buyurtmachi" tomonidan tanlovlar o'tkazish bo'yicha tuzilgan Xarid komissiyasi tomonidan o'tkaziladi.

2.3. Tanlov G'ijduvon tumani Xalq ta'lim bo'limi "Buyurtmachi" tomonidan tuzilgan Xarid komissiyasi tomonidan qonunda belgilangan tartibda, belgilangan muddatlarda o'tkaziladi.

3.TANLOV ISHTIROKCHILARI

3.1. Tanlov mulkchilik shaklidan qat'iy nazar shu mazmunda ish va xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan, kamida 3 yil tajribaga ega bo'lgan barcha Yuridik maqomga ega bo'lgan tashkilotlar ishtirok etishi mumkin.

3.2. Tanlovda ishtirok etishi uchun talabgorlarga quyidagi malakaviy talablar qo'yiladi:

tanlov predmeti ishlar(xizmatlar)ni bajarish uchun zarur bo'lgan mehnat resurslari va mutaxassislarning mavjudligi;

- ob'yektning murakkablik darajasiga qarab, "lisenziya" va "guvohnoma"
- 684-Qonun 13-moddatiga rioya etilishi shart
- Moddiy-texnika bazasi xamda tashkilotning orgtexnika ruyxati uskunalar
- Baxtsiz xodisalar bulgan vaziyatlarda ishchi xodimlarning xayoti sugurtalanganiligi
- Texnika xafsizligi koidalariga rioya kilish talablari xamda yuriknomalari
- Ishchi xodimlarning diplom nusxalari, mehnat daftarchalari yoki mehnat.uz sayti orqali ro'yxatdan o'tganligi to'grisidagi hujjat
- Bajarilgan ishlarga beriladigan kafolat muddati
- Shu soxada oldin kilingan ishlari bo'yicha buyurtmachilar bergan tavsifnomalari

3.3. Agar tanlov predmeti bo'lgan ishlar (xizmatlar) nibajarish bilan bog'liq faoliyat qonunchilikka binoan lisenziyalashtirishi zarur bo'lsa, tanlovda ishtirok etish uchun belgilangan tartibga muvofiq tegishli lisenziyaga ega bo'lgan talabgorlarga ruxsat etiladi.

3.4. Quyidagi talabgorlarga tanlov jarayonlarida ishtirok etishga ruxsat berilmaydi:

qayta tashkil etilish(ajralishi, qo'shilish), tugatish yoki bankrotlik arafasida turganlar; mol-mulki musodara qilinganlar, hamda muassislik kelishuv, moliyaviy ishtirok, xolding va boshqa shaklda ifodalangan bevosita tashkiliy-huquqiy yoki bir biriga moliyaviy qaramligi mavjudlar.

4.TANLOVDA ISHTIROK ETISH UCHUN TAKLIFLARNI TAQDIM ETISH

4.1.Tanlov uchun takliflar va unga tegishli ilovalar va xujjatlar, ma'lumotlar "Buyurtmachi" va "Ishtirokchi" ixtiyoriga ko'ra o'zbek va rus tilida taqdim etilishi mumkin.

4.2.Tanlov xujjatlarida quyidagilar taqdim etilishi lozim:

Texnik qism, "Buyurtmachi" tomonidan qo'yilgan texnik talablarni va bajariladiganish va xizmatlar ko'rsatilishi kerak.

4.3.Quyidagi xujjatlar to'liq bo'lishi talab etiladi:

Tanlov talablari bo'yicha zarur xujjatlar biriktiriladi.

4.4. Tanlov ishtirokchisi:

- faqat bitti taklif berishi mumkin;
- taqdim etilayotgan xujjatlarning haqiqiyli va ma'lumotlarning haqqoniyligiga to'liq javobgar bo'ladi;
- takliflar berish muddati tugagunga qadar o'z takliflarini qaytarib olish yoki o'zgartirish kiritish huquqiga ega.

5.TAKLIFLARNI TAQDIM ETISH MUDDATINI UZAYTIRISH

5.1.Xarid komissiyasi tanlov uchun takliflarni qabul qilish muddatini barcha ishtirokchilar uchun ta'luqli holda e'lon qilingan muddatdan yana 5 kalendar kunga uzaytirishi mumkin.

5.2.Takliflar muddatini uzaytirilishi faqat xarid komissiyasi yig'ilishi qarori asosida amalga oshiriladi.

5.3.Tanlov muddatini uzaytirish to'g'risidagi qaror maxsus axborot portalida joylashtirilishi lozim.

6.TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

6.1.Davlat xaridlari to'g'risidagi Qonun talablarini buzgan shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

6.2.Xarid komissiyasi davlat xaridlari bo'yicha qonunchilikda belgilangan tartibda g'olib ishtirokchilarni aniqlash va asoslangan qaror qabul qilish bo'yicha majburdir.

6.3.Tanlov ishtirokchisi taqdim etilgan barcha xujjatlarni haqiqiyli va to'g'riligiga javobgardir. G'olib ishtirochi deb topilgandan so'ng qonunchilikda belgilangan tartibda davlat buyurtmachisi bilan o'matilgan tartibda va muddatlarda shartnoma tuzishga majburdir.

7.BOSHQA SHARTLAR

7.1.Davlat buyurtmachisi tanlov xujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida tanlovda ishtirok etish uchun takliflar berish muddati tugaydigan sanadan kamida uch kun oldin qaror qabul qilishga haqli. Tovarni (ishni, xizmatni) o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi. Bunda ushbu tanlovda takliflar berish tugaydigan muddat tanlov xujjatlariga o'zgartirishlar kiritilgan sanadan e'tiboran kamida o'n kunga uzaytirilishi kerak. Shu bilan bir vaqtda, agar e'londa ko'rsatilgan axborot o'zgartirilgan bo'lsa, tanlov o'tkazish to'g'risidagi e'longa o'zgartirish kiritiladi.

7.2. Tanlov ishtirokchisi tanlov xujjatlari qoidalarini tanlov o'tkazish uchun e'londa belgilangan shaklda tushuntirish talabi bilan davlat buyurtmachisiga so'rov yuborishga haqli. So'rov kelib tushgan sanadan e'tiboran ikki ish kuni ichida davlat buyurtmachisi, agar mazkur so'rov davlat buyurtmachisiga takliflar berish muddati tugaydigan sanadan kamida ikki kun oldin kelib tushgan bo'lsa, ushbu so'rovga belgilangan shaklda javob yuborishi shart. Tanlov xujjatlarining qoidalariga doir tushuntirishlar ularning mazmun-mohiyatini o'zgartirmasligi kerak.

7.3.Takliflarni ko'rib chiqish va baholash bayonnomasi xarid komissiyasining a'zolari tomonidan imzolanadi hamda undan olingan ko'chirma u imzolagan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida maxsus axborot portalida e'lon qilinadi.

7.4. Tanlovning istalgan ishtirokchisi takliflarni ko'rib chiqish va baholash bayonnomasi e'lon qilinganidan so'ng davlat buyurtmachisiga tanlov natijalariga doir tushuntirishlarni taqdim etish to'g'risida so'rov yuborishga haqli. Davlat buyurtmachisi bunday so'rov kelib tushgan sanadan e'tiboran uch ish kuni ichida tanlov ishtirokchisiga tegishli tushuntirishlarni taqdim etishi shart.

7.5.Tanlov natijalari bo'yicha shartnoma tanlov xujjatlarida va o'zi bilan shartnoma tuzilayotgan tanlov ishtirokchisi tomonidan berilgan taklifda ko'rsatilgan shartlar asosida tuziladi.